

## JANUBIY O'ZBEKISTON ZIYORATGOHLARINING TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

Djuraeva Sanabar Nurmatovna,  
tarix fanlari doktori. O'zbekiston Milliy universiteti professori.  
<https://doi.org/10.53885/edires.2024.04.2.010>

*Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyoda ziyorat masalasi, uning diniy ibodat ekanligi, islom dini va unda ibodatning turlari sifatida haj hamda musulmonlar orasida qabr ziyorati amali hamda buyuk allomalar ijodiy merosi, islom dini ta'limotida muhim o'rinn tutgan shaxslar, avliyo pir darajasidagi ulamolar ta'limoti, qabr ziyorati masalasida sovet yillarida bildirilgan munosabatlar, o'sha davr adabiyotlari orqali o'r ganilgan. Shu bilan birga, ziyorat u bilan bog'liq marosimlar, urf-odatlar, diniy e'tiqod ildizlari mustaqillik davri adabiyotlarida, xorij tadqiqotlari orqali chuqur tahlil qilingan.*

*Kalit so'zlar: shahar, alloma, ziyoratgoh, qadamjo, manba, qo'lyozma, adabiyot, tasavvuf, marosim, urf-odat, ibodat, kult.*

## ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПАЛОМНИЧЕСТВА ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА

Джураева Санабар Нурматовна,

доктор исторических наук. Профессор Национального университета Узбекистана.

*Аннотация. В статье рассматривается вопрос паломничества в Центральной Азии, ее религиозного поклонения, ислама и видов богослужения в нем, паломничества и практики посещения могил среди мусульман, а также творческое наследие великих ученых, людей, сыгравших важную роль в учении ислама, учении ученых на уровне святых, вопрос могильного паломничества в советские годы выражаемые связи изучались через литературу того времени. В то же время ритуалы, обычаи и корни религиозных верований, связанные с паломничеством, глубоко проанализированы в литературе периода независимости, посредством зарубежных исследований.*

*Ключевые слова: город, аллома, святыня, паломничество, источник, рукопись, литература, суфизм, церемония, традиция, богослужение, культ.*

## HISTORICAL ANALYSIS OF THE PILGRIMAGE OF SOUTHERN UZBEKISTAN

Djuraeva Sanabar Nurmatovna,

Doctor of History. Professor of the National University of Uzbekistan.

*Annotation. In the article, the issue of pilgrimage in Central Asia, its religious worship, Islam and the types of worship in it, the pilgrimage and the practice of visiting graves among Muslims, as well as the creative heritage of great scholars, the people who played an important role in the teachings of Islam, the teachings of scholars at the level of Saints, the issue of grave pilgrimage in the Soviet years the relations expressed were studied through the literature of that time. At the same time, the rituals, customs, and roots of religious beliefs related to the pilgrimage have been deeply analyzed in the literature of the period of independence, through foreign studies.*

*Key words: city, shrine, pilgrimage, source, manuscript, literature, Sufism, ceremony, tradition, worship, cult.*

**KIRISH.** O'zbek diniy, milliy va ma'naviy qadriyatlaridan bir hisoblangan ziyoratgoh va muqaddas qadamjolar tarixini o'r ganish, xalqimiztafakkurini shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini

tadqiq qilish o‘zbek xalqi milliy mentaliteti, o‘zlikni anglashmasalasining tarixiy ildizlarini ochib berishga imkon beradi. Muqaddas qadamjolarning tarixi va ularning ziyyarat ob’ektiga aylanishini o‘sha davrdagi tarixiy jarayonlar, xalqning ruhiyati va kayfiyatini hisobga olgan holda tadqiq etish katta ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Shu jihatdan, O‘zbekiston hududidaqadimgi davrlardanshakllanib, takomillashib kelgan an’anaviy qadriyat va urf-odatlarning jamiyat ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlaridagi o‘rnini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur mavzu yuzasidan turli ko‘rinishdagi adabiyot va tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsada, ularda Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzida ziyyaratgoh masalasi, uning kelib chiqishi va aholining munosabati Farg‘ona, Qo‘kon, Xorazm, Buxoro ziyyaratgohlari misolida tadqiq etilgan.

Ziyyarat masalasi, bevosita diniy ibodat bilan bog‘liq bo‘lib, dinshunoslik yo‘nalishida yaratilgan adabiyotlarda turli dinlarning kelib chiqishi, taraqqiyoti tarixi, ta’limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni dunyo dinlar tarixi misolida ko‘rsatib berilgan. Mazkur turdagи asarlarda, islom dini va uning tarixi tahlil qilinishi barobarida islom dinida ibodatning turlari sifatida haj hamda musulmonlar orasida qabr ziyyorati masalasining umumiyligi jihatlari to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirilgan [1:672].

Shuningdek, islomshunoslik yo‘nalishida, buyuk allomalar ijodiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilib, nafaqat umumiyligi tarix hajmida, balki islom dini ta’limotida muhim o‘rin tutgan shaxslar, ya’ni avliyo, pir darajasidagi ulamolar va ularning ta’limoti, jumladan, ziyyaratning turlari, islomda qabrlarni ziyyarat qilish masalasi, tasavvuf va tariqatlarning tarqalishi bilan bog‘liq qarashlar asosidagi xulosalar ilmiy tadqiq qilinadi [2:23 ]. Mazkur turdagи adabiyotlar ziyyaratgohlarning paydo bo‘lishi, avliyo, pirlar nomi bilan bog‘liq muqaddas joylar hamda islom olamida mashhur tasavvuf vakillarining fikrlari borasida yangi ma’lumotlarni olish imkonini yaratadi.

Markaziy Osiyo musulmonlari yashaydigan hududlarning Rossiyaga qo‘sib olinishi olimlarning tarix, madaniyat va aholi turmush tarzini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttirdi. Ular o‘z xizmatlari davomida, mahalliy aholi bilan birga yashab, ularning turmush tarzini o‘rganganlar va xulosalar asosida, Turkiston musulmonlarining ziyyaratgohlari, mozar, muqaddas joylar to‘g‘risida ma’lumot bergenlar. Mazkur tematika mualliflar tomonidan mahalliy aholi hayotiga yoki uning islom diniga nisbatan munosabati ba’zi o‘rinlarda salbiy baholangan. Ba’zan etnografik nuqtai nazardan bayon etilgan.

Masalan, hududiy ziyyaratning o‘ziga xos hususiyatlarini akademik V.V.Bartold [3] asarlarida tilga olinsa, Turkiston musulmonlarining ziyyarat masalasi Ch. Valixonov [4] tadqiqotlarida berib o‘tiladi. Shuningdek, aynan shu davrda mahalliy aholi turmush tarziga oid asarlarda muqaddas joylar to‘g‘risida fragmentar eslatib o‘tilgan ma’lumotlar rus mualliflarining geografik-statistik harakterga ega ma’lumotlarida ham aks etadi [5].

Aytish lozimki, O‘zbekistonda ziyyaratgohlар faoliyatining ayrim jihatlari yoritilgan sovet yillardagi adabiyotlarda, nafaqat O‘zbekistonning janubiy hududi, balki ziyyaratgohning umumiyligi hususiyati va aholining munosabati tahlil qilingan. Turkiston mustamlaka davri ziyyarat masalasini tadqiq qilgan olim V.Litvinov ham o‘z tadqiqotida, muammoning o‘rganilish jihatlarini ta’kidlab, Sovet tarixshunoslida, ziyyarat masalasi hukumat siyosati darajasida o‘rganilmaganligini qayd etadi. XX asrning 20-yillarda musulmonlarni inqilobiy o‘zgarishlarga jalb qilish maqsadida partiya va sovet adabiyoti bu masalani o‘rgana boshlagan. B.L. Kuftining «Qozoq madaniyati va hayoti» to‘g‘risidagi kitobida xalqning muqaddas joylarga tashrifi haqida qisqa eslatib o‘tiladi. Keyingi yillarda musulmon ruhoniyilar faoliyati keskin ta’qib ostiga olinib, mozar va qabrlarga tashrif qoloqlik va johillik belgisi, deb baholandi. 1936 yilda L. I. Klimovich «Islam v sarskoy Rossi» asarida bu haqda qisqacha ma’lumotlarni bersada, muqaddas joylarga ziyyarat to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ilmiy nuqtai nazardan emas, «shaxsga sig‘inish» ning sabablarini sinifylik misolida ko‘rsatib bergen [6:26].

Ta'kidlash o'rinni, XX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan barcha adabiyotlar jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar va kommunistik partiyaning g'oyaviy ta'siri ostida din bilan bog'liq eskilik sarqiti sifatida baholanib, yoritilgan. Tadqiqotlarning asosiy ob'ekti sifatida islam dini va uning tarixini o'rganish belgilangan bo'lib, xususan T.Saidbaev, O.Suxareva, M.Jalolov, A.Ahmedov, R.Mavlyutov, U.Yusupov kabi mualliflar o'z ilmiy ishlarida islam dini va u bilan bog'liq marosimlar tarixini salbiy baholab, tahlil qilganlar. Masalan, R.Mavlyutov «Islam» nomli risolasida, mahalliy aholi hayotida ziyorat fenomeni to'g'risida fikr bildirgan. Uning ta'kidlashicha, musulmonlar o'zlarining avvalgi ajdodlaridan qolgan diniy e'tiqod an'analariga amal qilib, turli qadimiyy inshoatlar, qabrular, qabristonlarni hamda daraxt, tosh va boshqalarni muqaddas joylar (mozorlar) sifatida hurmat qilishgan [7:100-110]. Odadta, bu mozorlar afsonalar bilan muqaddaslashtirilgan bo'lib, O'zbekiston hududida ilk bor VII-VIII asrlarda musulmon mozorlariga sig'inish sifatida paydo bo'lgani qayd etilgan.

Ziyorat va u bilan bog'liq marosimlar, nafaqat o'zbek xalqi orasida, balki, o'lkada yashovchi turli millat vakillari orasida saqlangan va hozirga qadar qo'llanib kelinayotgan urf-odatlardan biri hisoblangan. Shu jihatdan, Rossiya tarixshunosligining sovet yillari adabiyotlarida, boshqa hududlar aholisi (qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari) misolida, muammoning ayrim masalalari yoritilgan. O.Murodov tadqiqotida, Zarafshon tojiklari misolida diniy kultning kelib chiqishi shomonlik dini ildizlari bilan bog'lansa [8], L. Tolstov tadqiqotida, Xorazm vohasi turkiy tilli aholisi o'rtasidagi diniy ibodat shakllarining tarqalish asoslarini xalq folklori bilan bog'lab, uning tarixiy o'tmishini massaget qabilasiga borib taqagan [9]. S.Abramzon diniy ibodatda kult masalasini qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqi turmush tarzidagi diniy elementlar misolida qiyosiy tahlil qilib, uning asoslarini bevosita qadimgi tarixiy jarayondagi diniy e'tiqod ildizlari qoldiqlari bilan bog'liqligini ko'rsatib bergen [10].

Sovet yillarida nashr qilingan O'zbekiston tarixiga doir adabiyotlardaham mazkur mavzu aholi ijtimoiy-madaniy hayoti yoki shahar arxitekturasida tarixiy yodgorliklar misolida Toshkent [11], Buxoro [12:328], Fargona muqaddas qadamjolari va diniy kultlar mavzusi yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlar orasida sovet etnografi G.P.Snesarevning ilmiy izlanishlari [13] Xorazm hududi ziyoratgohlari misolida o'rganilgan bo'lsa, V.N.Basilov tadqiqotlarida, muqaddas avliyolar obrazi, uning tarixiy ildizlari bevosita shomonlik bilan bog'liq ekanligi qayd etilgan [14:3-5] Umuman, sovet davri adabiyotlarida janubiy O'zbekiston misolida ziyorat masalasi tadqiqot sifatida o'rganilmagan, hatto buni tadqiqotchi olim V.P.Litvinov ham baholab, Turkistondagi din bilan bog'liq e'tiqodlar etnografik yo'nalishda faqat bir hudud doirasida o'rganilgani, ya'ni olimlar hududlarning o'ziga xos hususiyatlarini ochib berishga e'tibor qaratganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tadqiqotchilarning kamchiligi shundaki, muqaddas joylarga ziyorat masalasi maxsus chuqur o'rganilmagan va undagi yondashuvlar partiya g'oyaviy mafkurasi nuqtai nazardan baholanib, eskilik sarqiti, jamiyatdan orqada qolish g'oyalari bilan yoritib berilgan [6:26].

Sovet davrida nafaqat din bilan bog'liq ziyorat tarixi, balki Surxondaryo va Qashqadaryo vohasining qadimiyy obidalari va tarixiy joylari arxitekturasi, san'at, madaniyat va diniy etnografiyasining ma'lum masalalarini yoritgan ilmiy adabiyotlar yaratildi. Ayniqsa, 1968-1970 yillarda O'zbekistonda turli ko'rinishdagi etnografik ekspeditsiyalar tashkil etilib, aholining etnik sostavi, xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati, oila va oilaviy turmush tarzi to'g'risida katta hajmli ma'lumotlar yig'ildi [15:161].

Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy obidalar tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish 1870 yilda Chor Rossiyasi tomonidan Shahrisabz va Kitob bekliklarining tugatilishi, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidan keyin boshlangan. Shahrisabzga dastlab tashrif buyurgan tabiatshunos A.L. Kun (1870), V.N. Litvinov (1895- 1910), I.A.Kastane (1916), suratkash G.Ye. Krivsov, topograf Sitnyakovskiy, yozuvchi V.V. Krestovskiy bu shaharda o'zlarini ko'rgan me'moriy obidalar to'g'risida umumiyy ma'lumotlar qoldirishgan, xolos.

Jumladan, Nasaf va Kesh shaharlari, qishloqlari tarixiy topografiyasi bilan dastlab yozma manbalar asosida V.V. Bartold [16:187-197] [17:188-196], L.A. Zimin[18:127] shug‘ullangan. 1927 yilda Shahrisabzning tarixiy-me’moriy yodgorliklari B.N. Zasypkin, 1930 yillarda Ya.G’. G’ulomov, T. Mirg’iyosov, S.K. Kabanovlar [19:16; 77-114 ] tomonidan tadqiq etilgan. 1942 yilda M.Ye. Masson, G.A. Pugachenkova [20: 292], V.L. Voronina, 1948 yilda esa O.A. Suxareva Shahrisabzning mahallalari, guzarlari, tarixiy topografiyasi va shahar aholisining etnik qatlamlarini o‘rgangan.

Tadqiqotlar orasida arxeolog L.Yu. Mankovskayaning “Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari» kitobi [21:56] muhim hisoblanadi. Unda hududdagi temuriylar davri yodgorliklari, Xojagiy Imkanagiy, Abulqosim Xoja xonaqohlari holati to‘g‘risida keng ma’lumot beriladi. Arxeolog olim M.Ye. Masson [22:32] Qashqadaryo vohasi Shahrisabz xududidagi qabrlar (Xazrati Imom, Sulton Sodot) xolatini o‘rganib, xulosalar beradi.

Shu bilan birga, arxeolog olimlardan R.Abdurasulov, L.Rempel, L.Mankovskaya tomonidan Qashqadaryo viloyati Koson tumani Pudina qishlog‘ida joylashgan Qusam Shayx me’moriy yodgorligidagi eng qadimgi makbaralar X-XI asrda bunyod etilganligi aniqlangan [23:30].

1963-1966 yillarda ToshDU ning yosh arxeologik, topografik ekspeditsiyasi (KATE) a’zolaridan M.Ye. Masson [24: 61], S.B. Lunina [25:14-26], 3.I. Usmanova [26], N.I.Krasheninnikova [27], hamda XX asrning 70-yillarida B.D. Kochnev tomonidan mazkur hudud yodgorliklari o‘rganilgan. Keyingi yillarda, ya’ni, 1980-90 yillarda Sh.S. Kamoliddinov mazkur mavzuda izlanishlar olib borgan [28:36]. So‘nggi yillarda arxeologiya sohasida qilingan tadqiqotlarda, bu masalaga doir ma’lumotlar va tahlillar qayd etilgan.

Somoniylar (IX-X asrlar), Qoraxoniylar (XI-XII asrlar), G‘aznaviylar va Saljuqiylar (XI-XII asrlar) davrida Surxon vohasi me’morchiligi rivojlanib, alloma va avliyolar qabri ustiga maqbaralar qurilgan. Bunday tarixiy obidalarning asosiy qismi Termizda joylashgan. 1936 yil Termizda M.Ye. Masson boshchiligidagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (TAKE) M.Ye. Masson [29:113-126], G.F. Parfenov, V.A. Shishkin va 1938 yilda G.A. Pugachenkova [30:256] arxeologik yodgorliklar haqida muhim ma’lumotlar yozgan.

1960 yilda G.A. Pugachenkovarabarligidagi ekspeditsiya Xolchayon tepaligini tekshirishga kirishdi. 1960-1962 yillarda L.I. Rempel boshchiligidagi san’atshunoslik [31:156-191] ekspeditsiyasi Surxondaryodagi qishloqlar arxitekturasini o‘rganishni boshladi. 1968 yilda Z.A. Hakimov, 1977 yilda esa E.V. Rtveladze [32:114-119] va V.A. Arshavskaya ilmiy izlanishlar olib borganlar [33:105-108]. Mazkur arxeologik qazishmalarda, hozirgi kunda ziyorat makoniga aylangan tarixiy yodgorliklar ham o‘rganilgan.

Aytish mumkinki, muammoning ayrim. jihatlari xorij tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. Xorij (ingлиз-америка) tadqiqotchilari A.Bennigsen [34:272;267], J.Uiler [35:189-217], U.Kolarz [36:72; 518; 334], S.Uimbush.[37:69-78; 218-234 ], M.Olkott [38:487-504] kabi olimlarning izlanishlarida aholining ziyorat joylariga tashrifi tazyiq ostiga olingani qayd etilgan. Xorij olimlarining mavjud adabiyotlardan foydalanish va etnografik tadqiqotlar olib borishi uchun imkoniyatlar yetarli bo‘lmaganligi sababli ularda aholining ishtiroki masalasi batafsil tahlil qilinmagan.

1991 yildan so‘ng O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvি tarixiy jarayonlarni xolislik nuqtai nazaridan o‘rganishni yangi bosqichga ko‘tardi. Jumladan, mahalliy tarixchilar tomonidan islom dini ilmiga hissa qo’shgan,xalqaro islom dunyosida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan mashhur muhaddis olimlar, tasavvuf nomoyondalari asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilishi xalqning o‘z qahramonlari bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Mazkur tadqiqotning ob’ekti hisoblangan O‘zbekistonning janubiy xududi etnografiyasi, toponimikasi, muqaddas qadamjolari nomi bilan bog‘liq avliyolar, tabarruk shaxslar [39:174-179] haqida ma’lumotlarni jamlagan maqolalar [40:571-577], adabiyotlar va risolalar chop qilindi. Jumladan, S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardaev, B.Murtazoevning g Surxondare tarixi va etnografiyasiga doir tadqiqotlari, A.Xolmirzaevning tabarruk ziyoratgohlarga doir

risolasi, M.Pardaevning Oltinsoy ziyoratgohlari, S.Jo'raevaning O'zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o'rni [41:352], Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi [42:224], Surxondaryo tarix sahnasida [43:288] nomlimonografiyalari, A.Nabievning tarixiy o'lkashunoslik masalasiga doir ilmiy izlanishlari, J.Mirzaevning Termiz olimlari va sayyidlari, ularning faoliyati va asarlari asosida yoritilgan tadqiqotlari [44:41-71], Nasaf va Kesh allomalari nomli elektron qo'llanma qiziqarli ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Shuningdek, A.Choriev, Sadreddin Salim Buxoriy, J.Mirzo, I.Rayhonov, Sh.Sharipov, I.Xoliyorov, Muhammad Usmon Jamol, Mirzo Ahmad Xushnazar va boshqalar ham ziyoratgohlari haqida u yoki bu darajada ma'lumotlar taqdim etishgan. Biroq bu ma'lumotlar fragmentar darajada O'zbekistonning janubiy hudud ziyoratgohlari tarixi va ularning aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi ahamiyatini yoritib beradi.

Mustaqillik yillarida, diniy e'tiqodlar va ziyoratlar masalasining turli jihatlari hududiy tadqiqotlarda ham o'rganilishi davom etmoqda. O'zbek etnografi I. Jabborov aholi turmush tarzida ziyorat masalasini tadqiq qilgan holda, o'tgan ajdodlar arvofiga ibodat qilish, ularni xotirlash, tabiat kuchlariga sig'inish natijasida juda ko'p muqaddas joylar va avliyolar vujudga kelganliginligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim o'zbeklar orasida mashhur bo'lgan muqaddas qadamjolar, daraxt, tosh, g'or, pir avliyolar, narsa-buyumlarga ishonishni fetishizm relikti bilan bog'laydi va u nafaqat islomda, balki boshqa dinlarda ham uning elementlari kuzatilishini keltirib o'tadi [45:209-210]. A.Ashirov tadqiqotlarida, qadimgi diniy marosimlar va ibodatlar masalasi tahlil qilinib, ziyorat masalasi, uning aholi turmush tarzidagi ahamiyati yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi [46:107-127].

Tadqiqotlar orasida F.Rahmonovning Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odat va marosimlari haqida olib borgan ilmiy izlanishlari mavzuga aloqador muammolarni o'zida jamlaydi [47:146]. Tadqiqot ishining davriy chegarasi XIX asrning oxiri XX asr boshlarini qamrab oladi va ilmiy izlanishda diniy kultlar bilan bog'liq marosimlar tavsi fi beriladi. Shuningdek, J. Cho'tmatovning Termiziylar tarixiga doir manbashunoslik ishida ham bu haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi [48:193].

Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi tarixiy ob'ektlarini me'morchilik, arxitektura nuqtai nazaridan o'rganish olim I.Azimovning tadqiqotida ko'zga tashlanadi. Hususan, unda O'zbekistonning janubiy hududlaridagi yodgorliklar to'g'risida ham xulosalar berib, bu hududdagi masjidlar konstruksiya va bezaklari xilma-xil bo'lganligi, simmetrik, assimetrik, ustunli gumbazzimon ganch va yog'ochga o'yilgan yozuvli tasvir ko'rinishida ekanligini aytadi [49:343]. Mustaqillik yillarida A.V. Arapov, M.S.Bulatov va Yu.G.To'ychieva ilmiy maqolalarida Oq ostona bobo ziyoratgohi [50:12]. bilan bog'liq xulosalar keltiriladi

Tojikiston olimlari tomonidan ham muqaddas ziyoratgohlar tarixi masalasida tadqiqotlar o'rganilishi davom etmoqda. Bu borada, B.Tursunov tadqiqotini keltirish o'rinni [51: 34-35]. Tadqiqotchi Xo'ja Takrovut mozori misolida ziyoratgohlarning holati va bugungi kunda unga tashrif etuvchilarining maqsadlarini tahlil qilgan.

Rossiya tarixshunosligida ham O'zbekistonda islom diniy e'tiqodlari bilan bog'liq jarayonlar tarixi borasida yangi talqinlar va qarashlar bilan boyitilgan tadqiqotlar yaratilishi davom etmoqda. Jumladan, o'zbek xalqi etnografiyasini bo'yicha yetuk olim S.Abashinining tadqiqotlari ham bu borada juda ko'p masalalarga oydinlik kiritadi [52:128-131;1-11]. Tadqiqotchi O'zbekiston hududi islom dini marosimlari bilan bog'liqlikda, balki tarixi, madaniyati, yashash, turmush tarzi bir xil bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotidagi o'rni bilan solishtirgan holda keltiriladi.

Mazkur tadqiqotlar orasida V.Litvinovning Turkistonda haj va muqaddas joylarga ziyorat masalasiga bag'ishlangan izlanishlarida, mazkur masalaning turli jihatlari yoritib berilgan [6:210-216]. Jumladan, olimning keltirishicha, Rossiya imperiyasining Turkistondagi musulmonlarga munosabati har doim ham yomon bo'lmagan, islom diniga oid masalalarda hududiy ishlarga aralashmagan bo'lsada, haj ziyorati va muqaddas joylarga ziyorat masalasida

aholining tibbiy sog‘lig‘ini saqlash maqsadida ba’zi cheklovlar o‘rnatgan. Hususan, turli epidemiyalarning tarqalishi munosabati bilan aholining ziyoratlardagi ishtirokida cheklovlar belgilangan. Bundan tashqari, Chor Rossiyasi davrida aholi o‘rtasida avliyo qabrlariga, mozorlarga borish keng tarqalganini ta’kidlaydi.

S.Jitinev madaniyatshunoslik yo‘nalishida ziyoratdagi diniy kultlar turli din elementlarini o‘zida birlashtirib, bu madaniyatlarning rivojlanishi uchun asos bo‘lishini ko‘rsatib beradi [53:186]. Madaniyatshunoslik kontekstida qilingan Ye.Kalujnikova [54:167] tadqiqotida esa, ziyorat ritual marosimlarni amalga oshirish maskani sifatida uning mohiyati va tarixiy tuzilishi ko‘rib chiqiladi. Har ikkala tadqiqotda ham asosan xristianlik, islom va boshqa dinlar misolida ziyoratgoh masalasi tahlil qilingan.

Astraxan misolida muqaddas diniy kultlar masalasini tahlil qilgan tadqiqotchi A.V.Sizranov [55:127-143] ning qayd etishicha, Quyi Volgada turkiy xalqlar orasida islomning kirib kelishi va o‘rnatilishi O‘rta Osiyo so‘fylarining kuchli ta’siri ostida shakllangan, degan xulosa keladi. Quyi Volga va Markaziy Osiyo musulmonlarining madaniy an’analari birligi haqida aytib o‘tib, migratsiya jarayonlari, ular bilan diniy aloqalarning uzilib qolganligi, davlatning dinga qarshi siyosati va sovet davridagi tuzum an’alarning unutilgani bilan izoxlanadi.

Shuningdek, xorij tarixshunoslida islom dinida ziyoratgohlar va u bilan bog‘liq masalalarga doir ayrim ma’lumotlar ilmiy masala ko‘rinishida ham tahlil qilingan. Masalan, D. DeUiz [56:73-78], D.Montgomeri [57:192-218], M.Ibadi [58:70-77], T.Dadabaev [59:328-353], D. Abramson, E.Karimov [60:319-338] tadqiqotlarida ham ziyorat masalasining turli jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Jumladan, D. Abramson va E. Karimov hammuallifligida yozilgan maqolada, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratning ahamiyati, turli davrlarda unga bo‘lgan munosabat va mustaqillik yillarda ziyoratgohlarning holati tadqiq qilinada. Mualliflar asosiy ob‘ektlar sifatida Buxoro, Xiva, Qo‘qon shahridagi mashhur tarixiy-madaniy joylarni tadqiq qiladilar.

O‘zbekistonning janubiy xududidagi ziyoratgohlar masalasining ayrim jihatlari fragmentar darajada tadqiqotchilar tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan. [61:2693]. Tarixchi olim S. Djuraevaning tadqiqotlarida Qashqadaryo va Surxon vohasi hududi ziyoratgohlari [62:5188-5194], va ularning aholi ma’naviy, madaniy hayoti [63:86-90] da tutgan o‘rni kabi masalalar ko‘rsatib berilgan. [64].

#### XULOSA

Tadqiqot tahliliga tortilgan adabiyotlar xulosasi O‘zbekistonning janubiy hudud ziyoratgohlari tarixi va ma’naviy-ma’rifiy hayotdagi ahamiyatini alohida tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda aks etmagan ba’zi masalalarni arxiv hujjatlari va manbalar yordamida tahlil qilish orqali diniy kultlarning kelib chiqishi, mozor, qabr, maqbara nomi bilan bog‘liq shaxslar personifikatsiyasi masalasini (psixologiya, etnologiya, sotsiologiya, dinshunoslik fanlar kesimida) ziyoratgoh nomi bilan bog‘liq shaxs nasabi, ilmu irfonи, qilgan amallari, qoldirgan adabiy merosining mazmun mohiyatini o‘rganish orqali yoshlar ongiga vatanparvarlik g‘oyasini singdirishda, aholining ma’naviy tarbiyaviy ongini oshirish imkonini beradi.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, O‘zbekistonning turli hududlari ziyoratgohlarini yorituvchi ilmiy ishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, aynan janubiy O‘zbekistonning madaniy turizmi bilan bog‘liq ziyoratgohlar tarixini va bugungi holatini yorituvchi kompleks tadqiqot yaratilmagan. Bu esa so‘nggi yillarda davlatimizning ziyorat turizmi sohasidagi islohatlarni amalga oshirishda muhim, ilmiy va amaliy ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

- Самыгин С. И., Нечипуренко В. И., Полонская И. Н. Религиоведение: социология и психология религии.-Ростов-на-Дону; Феникс, 1996. -672с.
- Бўриев О.Хожа Алоуддин Аттор.-Тошкент: Маънавият, 1994. -23 б.
- Бартольд В.В.Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения в 9 томах, т

- 1.-Москва, 1963.
- 4.Валиханов Ч. Ч. Сочинения в 5 томах, Т. 1-5.-Алма-Ата, 1985
- 5.Веселовский Н. Памятник Ходжа Ахрара в Самарканде. Восточные заметки.-Спб, 1895.
- 6.Литвинов. В. П. Мусульманское паломничество в царской России: историко-антропологический аспект: напримере Туркестана 1865-1917 гг. Дисс. канд. ист. наук.-Москва, 2007.-26 с.
- 7.Мавлютов Р. Р. Ислам. Изд. 2-е.-М., Политиздат, 1974.-С. 100-110.
- 8.Муродов О. Шоманский обрядовый фольклор у таджиков средней части дошны Зерафшана //Домусульманские верования и обряды в Средней Азии.-М.: Наука, 1975.
- 9.Толстов Л. С. Отголоски массагето-аларского субстрата в фольклоре тюркоязычных народов Хорезмского оазиса //Этнография и археология Средней Азии.-М., 1979.
- 10.Абрамзон С. М. Претметы культа казахов, киргизов и каракалпаков //Материальная культура их хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана.-Л.: Наука, 1978.
- 11.Азадаев Ф. Ташкент во второй половине XIX века. Очерки социально-экономической и политической истории.-Ташкент, 1959; Алекскеров Ю. Самарканда. Страницы истории.-Ташкент, 1967; Соколов Ю. А. Ташкент, ташкентцы и Россия.-Ташкент, 1965.
- 12.Сухарева О. А. Бухара XIX-начало XX в.( Позднефеодальный город и его население).-Москва, Наука. 1966.-328 с.; Кармышева Б. Х. О. Мусульманском духовенстве в сельских районах Бухарского ханства в конце XIX-начале XX века //Духовенство и политическая жизнь на Ближнем и Среднем Востоке в период феодализма.-М.: Наука, 1985.
- 13.Снесарев Г. П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма.-Москва, 1969; Снесарев Г. П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии.-Москва, 1983.
- 14.Басилов В. Н. Культ святых в исламе.-Москва, 1970; Басилов В. Н., Снесарев Г. П. Введение // Древние обряды, верования и культуры народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки.-Москва, 1986.-С. 3-5.
- 15.Этнографические изучение быта и культуры узбеков. Ред. Х. Зияев и Б. В. Лунин.-Ташкент: Фан, 1972.-161 с.
- 16.Бартольд В.В. Географический очерк Мавераннахра. Соч., Т.1.- Москва, 1963. С. 187-197.
17. Бартольд В.В. Соч. том 1, М., 1960. С. 188-196.
- 18.Зимин Л.А. Нахшеб, Несеф, Карши. Их история и древности В. В. Бартольду. Туркестанские друзья, ученике и почитатели. Ташкент, 1927. - С. 127.
- 19.Кабанов С. К. Описание архитектурных памятников низовьев реки Кашка-Дары.-Ташкент, 1947.-С. 16; Кабанов С.К. Археологические разведки в верхней части долины Кашкадары. Труды института истории и археологии. Вып. 7.-Ташкент, 1955.- С. 77-114.
- 20.Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана.-Ташкент, государственное издательство художественной литературы Узбекистана, 1958. 292 с.; Пугаченкова Г.А. Терmez, Шахрисабз, Хина. М.: Издательство, Искусство, 1976.-208 с.
- 21.Маньковская Л. Ю. Архитектурные памятники Кашкадары.-Ташкент: Узбекистан, 1971.-56 с.
- 22.Массон М. Е., Пугаченкова Г. А. Шахрисабз при Темуре и Улугбеке // Труды САГУ, вып. LXIX,-Ташкент, 1953.-С.32.
- 23.Абдурасулов Р. Р., Ремпель Л. И. Неизвестные памятники архитектуры бассейна Кашкадары. ИЗУ (Искусство зодчих Узбекистана). Вып.1.-Ташкент, 1962.-С.30.
- 24.Массон М.Е.Столичные города в области низовьев Кашкадары с древнейших времен (Из работ Кешской археолого-топографической экспедиции ТашГУ (1963-1967 гг.). Ташкент, 1973. С.61.
- 25.Лунина С. Б. Города Южного Согда Ташкент, 1984.-С. 14-26.
- 26.Усманова З.И. Историческая топография Шахрисабза в свете новых данных. Археология Средней Азии // Сборник научных трудов ТашГУ, №533.- Ташкент, 1977.; Археологическое изучение Шахрисабза. Средневековая городская культура Казахстана и Средней Азии.(Материалы Всесоюзного совещания 13-15 мая 1981.)-Алма-Ата, 1983.
- 27.Крашининникова Н. И. Маршрутное обследование Китабского района. АО1976.-М., 1977. Работы в Китабском и Шахрисабском районах. АО1981 г.-М., 1983.
- 28.Камалиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда в Тохаристана

- Арабоязычным источникам IX- начала XIII вв. Ташкент, 1996. - С.36.
29. Массон М.Е. Городища старого Термеза и их изучение. Труды Уз ФАН СССР, сер. 1 вып.2. Ташкент, 1940. С. 113-126.
30. Пугаченкова Г.А. Памятники искусства Советского Союза: Среднеая Азия.- М.: Элесиан Лейпциг, 1983. - С. 256.
31. Ремпель Л. И. Народная архитектура предгорной зоны Юга Узбекистана // Искусство зодчих Узбекистана. Вып. 4., 1969. С.156-191.
32. Ртвеладзе Э.В. К периодизации раннесредневекового Чаганиана. Раннесредневековая культура Средней Азии и Казахстана. Тез. докл. конф. Душанбе, 1977. С. 114-119.; Ртвеладзе Л.Л., Ртвеладзе Э.В. Мусульманские святыни Узбекистана. Ташкент, 2020. - 144 с.
33. Аршавская В.А, Ртвеладзе Э.В, Ҳакимов З. А. Средневековые памятники Сурхандарьи. - Тошкент: Издательство литературы и искусство им. Г. Гуляма, 1982. С. 105-108.
34. Bennigsen A (co-authorship Lemercier-Quelquejay Ch). Islam in the Soviet Union. - New York: Praeger, 1967.- 272 p.; Bennigsen A., Wimbush S.E. Muslim National Communism in the Soviet Union. A Revolutionary Strategy for the Colonial World. The University of Chicago Press, 1979.-267 p.
35. Wheeler G. Russia and Islam: new trends in soviet policy // Central Asian Review. - Oxford, 1956. Vol. 4. № 1. - P. 1-3.; Wheeler G. The modern history of Soviet Central Asia. - New York: Frederich A. Praeger, 1964; Wheeler G. The Russian Presence in Central Asia // Canadian Slavonic Papers. - Carleton University, 1975. Vol. 17. № 2-3. - P. 189-217.
36. Kolarz W. Islam in the Soviet Union, 1917-1960. -Karachi-Dacca, 1960.  
-72 p.; Kolarz W. Religion in the Soviet Union. - New York: St. Martin' Press, 1961. -518 p.; Kolarz W. Russia and her colonies. - Hamden, Conn: Archon Books, 1967.-334 p.
37. Wimbush S.E. The politics of identity change in soviet central Asia // Central Asian survey. - London, 1984. - Vol. 3. № 3. P. 69-78.; Wimbush S.E. The Soviet Muslim Borderlands / The Last Empire. Nationality and the Soviet Future. Edited by Robert Conquest. - California: Hoover Institution Press, 1986. - P. 218-234.
38. Olcott M.B. Soviet Islam and world Revolution // World Politics. - 1982. Vol. 34. № 4. - P. 487-504;  
Olcott M.B. Women and Society in Central Asia // Soviet Central Asia. The Failed Transformation.  
Edited by William Fiermar - Boulder: Westview Press, 1991.-P. 235-254.
39. Djuraeva N. Sanabar. Cultural and Educational Significanceof Pilgrimage Tourism Development in Uzbekistan //Central Asian journal of social sciences' and history. Vol.04.Iss 04.April, 2023.-P. 174-179.Journal homepage: <https://cajssh.centralasianstudies.org>.
40. Djuraeva S. The role of spiritual and material heritage of Surkhandarya region in the development of tourism // European Journal of Molecular & Clinical Medicine Volume 7, Issue 2, 2020. - P. 571-577.
41. Жўраева С. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидағи зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. Монография. - Т «O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi», 2021. -352 б.
42. Жўраева С. Сурхондарё вилояти зиёратгоҳлари тарихи. Монография. - Т «O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi», 2021. -224 б.
43. Джураева С.Н. ва б. СУРХОНДАРЁ тарих саҳнасида. Монография. - Т «O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi», 2022. -288 б.
44. Мирзо Ж. Термиз саййидлари.-Самарқанд-Термиз, 2001.-27 б.
45. Джаббаров И. Узбеки (Этнокультурные традиции, быт образ жизни)-Тошкент: Шарқ, 2007.-С. 209-210.
46. Аширов А. А. Еще раз о проблемах этнологии в Узбекистане //Этнографическое обозрение.-2006.№3.-С. 107-127
47. Раҳмонов Ф. Қашқадарё воҳаси ахолисининг зироатчиликка оид урф-одат ва маросимлари (XIX асрнинг охири-XX аср бошлари).: Тарих фан. номзоди... дисс.- Тошкент, 2001.-146 б.
48. Чўтматов Ж. О. VII-IX асрлар Термиз маънавий муҳити тарихи: анъаналар, тадриж ва янгилиниш. Тарих фан. фал. докт. (PhD)дисс.-Термиз, 2020.-193 б.
49. Азимов И. Архитектура Узбекистана XVIII-нач.XX вв.: Традиции и локальные

- особенности. Докт.дисс. Архитек. Наук.-Ташкент, 1999.-343 с.
- 50.Арапоев А.В., Булатов М. С., Тўйчиева Ю. Г. «Забытый» язык» символов. Ак-Астана баба //Мозийдан садо.-2000.№2/(14).-Б. 12.
- 51.Турсунов Б. Р. Из истории святыни Канибадамского оазиса (на материалах мазара Ходжа такровут).-Худжант: Ношир, 2007.-С. 34-35.
- 52.Абашин С.Н. Ислам и культ святых в Средней Азии//Этнографическое обозрение.-2001.№2.-С. 128-131.Абашин С. «Народный суфизм в современной Средней Азии // Исламские ценности и центральноазиатские реалии.-Ташкент, ИФЕАК, 2004.-С. 1-11.
- 53.Житинев С. Ю. Религиозное паломничество: межкультурные коммуникации и цивилизационный контекст. Дисс... канд. культурологии. Гос. акад. Славян культуры.-Москва, 2011.-186 с.
- 54.Калужникова Е. А. Паломничество как ритуаль: сущность и культурно-исторические типы. Дисс... канд культурологии..-Екатеренбург, 2007.-167 с.
- 55.Сызранов А. В. Культ мусульманских святых в Астраханском крае // Этнографическое обозрение.-2006.№2.-С. 127-143.
- 56.DeWeese D. Islamization and Native Religion in the Golden Horde: Baba Tiikles and Conversion to Islam in Historical and Epic Tradition. Pennsilvania, 1994. Pp.73-78.
- 57.David W. Montgomery, John Heathershaw. Islam, secularism and danger: a reconsideration of the link between religiosity, radicalism and rebellion in Central Asia // Religion, State & Society2016. 44:3, pp. 192-218.
- 58.Mehdi Ebadi. Shrine Pilgrimage (Ziyarat) in Turco-Iranian Cultural Regions // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage: Vol. 4: Iss. 1, Article 7. Volume 4(I)-2016. pp. 70-77.
- 59.Timur Dadabaev. Religiosity and Soviet ‘modernisation’ in Central Asia: locating religious traditions and rituals in recollections of antireligious policies in Uzbekistan // Religion, State and Society, - 2014. 42:4, pp. 328-353.
- 60.Abramson D., Karimov E. Sacred Sites, Profane Ideologies: Religious Pilgrimage and the Uzbek State. Eds. Sahadeo, Jeff, Russell Zanca. // Everyday Life in Central Asia Past and Present. Bloomington: Indiana University Press, 2007. pp. 319-338.
- 61.Djuraeva, SN, Alimova, MF, Mubarak, A., Mukhamadiev, NE, & Djuraev, AM (2023). Historiographical Analysis of Tashkent-Medieval Religious Architectural Monuments. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2693- e2693.
- 62.Djuraeva, SN (2022). Geographical Location And Architecture Of Shrines Formed In The Surkhan Oasis In The IX-XII Centuries. Journal of Pharmaceutical Adverse Outcomes, 5188-5194.
- 63.Djuraeva, SN (2022, December). HISTORY OF KHOJAHASANILGORI, KHOJAIPOK AND KHOJAMAIKHANA SHRINES IN SURKHAN OASIS. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 86-90).
- 64.Djuraeva, S., & Rakhimdjanov, D. (2021). Tourism Development In Mountainous Places Of Surkhandarya Region. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(6).